ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

AHOLIGA CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO‘RSATISHGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI

Nuritdinova Madina Voxidovna
O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24072664

Annotatsiya

Mazkur maqolada bank xizmatlari va bank mahsulotlarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning o‘zaro farqli jihatlari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bank xizmati va bank mahsuloti tushunchalariga oid mavjud nazariy yondashuvlar umumlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari yoritilgan. Shuningdek, bank xizmatlarining asosiy turlari, O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari bozorining xususiyatlari hamda jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan chakana bank xizmatlarining tasnifi keltirilgan. Bo‘limda chakana kreditlashning moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash, aholining turmush darajasini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mamlakat iqtisodiy o‘sishini rag‘batlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: bank xizmati, bank mahsuloti, chakana bank xizmatlari, chakana kreditlash, jismoniy shaxslar, moliyaviy inklyuzivlik, kredit mahsulotlari, bank operatsiyalari, raqamli bank xizmatlari.

Abstract

This article analyzes the economic essence of banking services and banking products and their differences from a scientific point of view. The existing theoretical approaches to the concepts of banking services and banking products are summarized, their interrelationships and differences are highlighted. The main types of banking services, the characteristics of the retail banking market in Uzbekistan, and the classification of retail banking services provided to individuals are also presented. The section substantiates the role of retail lending in ensuring financial inclusion, improving the living standards of the population, developing entrepreneurship, and stimulating the country's economic growth.

Keywords: banking service, banking product, retail banking services, retail lending, individuals, financial inclusion, credit products, banking operations, digital banking services.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining samarali faoliyat yuritishi, avvalo, mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini to‘liq va sifatli qondirishga bog‘liq. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, banklar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi hamda mijozlar talablarining o‘zgarishi natijasida banklar tomonidan taklif etilayotgan xizmatlar va mahsulotlar turi hamda sifati tobora kengayib bormoqda. Shu sababli bank xizmatlari va bank mahsulotlarining iqtisodiy mohiyatini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligi va farqlarini ilmiy jihatdan asoslash bank faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank xizmatlari va bank mahsulotlari bank faoliyatining asosiy elementlari bo‘lib, ular orqali banklar mijozlarning jamg‘arish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, kredit olish, investitsiya qilish va boshqa moliyaviy ehtiyojlarini qondiradi. Ayniqsa, chakana bank xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash hamda bank tizimining barqarorligini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada bank xizmati va bank mahsuloti tushunchalarining nazariy mohiyati yoritilib, ularning o‘zaro farqli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, bank xizmatlarining asosiy turlari, chakana bank xizmatlarining tasnifi hamda chakana kreditlashning iqtisodiy mazmuni va ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bank xizmatlari va bank mahsulotlarining nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganishda kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda tijorat banklari faoliyatiga oid statistik va analitik ma'lumotlar o‘rganildi. Shuningdek, bank xizmati va bank mahsuloti tushunchalarining iqtisodiy mohiyati qiyosiy tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda farqli jihatlari aniqlandi. Chakana bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va jismoniy shaxslarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi tizimli tahlil asosida baholandi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Bank xizmatlari va bank mahsulotlarining nazariy asoslari hamda ularning iqtisodiyotdagi o‘rni ko‘plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ayniqsa, bank xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, bank mahsulotlarini shakllantirish mexanizmlari va chakana bank xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari ilmiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Peter S. Rose bank xizmatlarini mijozlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bank faoliyatining asosiy natijasi sifatida baholaydi. Uning fikricha, bank xizmatlari nafaqat moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish, balki mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlik munosabatlarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank mahsulotlari bank tomonidan yaratiladigan va moliya bozorida taklif etiladigan aniq moliyaviy vositalar majmui sifatida talqin etiladi.

Frederic S. Mishkin bank xizmatlarini moliyaviy vositachilikning ajralmas elementi sifatida baholab, ularning iqtisodiy o‘sish va moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlashdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, zamonaviy banklar an’anaviy depozit va kredit xizmatlari bilan cheklanib qolmay, mijozlarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan innovatsion moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishi zarur.

Marketing nazariyasida Philip Kotler xizmatlarni moddiy shaklga ega bo‘lmagan, iste’molchi ehtiyojini qondirishga qaratilgan faoliyat natijasi sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuv bank xizmatlarining ham nomoddiy xususiyatga egaligini va ularning sifati ko‘p jihatdan mijoz bilan o‘zaro munosabatlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda bank mahsuloti va bank xizmati tushunchalari o‘rtasidagi farqlar batafsil yoritilgan. Ularning fikricha, bank mahsuloti bank operatsiyalari asosida shakllanadigan kompleks moliyaviy taklif bo‘lsa, bank xizmati ushbu mahsulotni yaratish va mijozga yetkazib berish jarayonini ifodalaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida ham bank xizmatlari bozorini rivojlantirish, bank mahsulotlari assortimentini kengaytirish hamda raqamli bank xizmatlarini joriy etish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Ular O‘zbekiston bank tizimida chakana bank xizmatlari ulushini oshirish, mijozlarga yo‘naltirilgan bank mahsulotlarini takomillashtirish va moliyaviy inklyuzivlikni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklari faoliyatida raqamli bank xizmatlari, masofaviy bank xizmatlari va mobil ilovalar orqali ko‘rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar ko‘lami sezilarli darajada kengaydi. Bu esa bank xizmatlari va bank mahsulotlarining mazmunini yangicha yondashuvlar asosida o‘rganishni talab etmoqda.

Tahlil va natijalar

O‘rganilgan ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda bank xizmatlari va bank mahsulotlarining nazariy jihatlari alohida yoritilgan bo‘lsa-da, ularning o‘zaro bog‘liqligi, ayniqsa chakana bank xizmatlari va jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonidagi o‘rni kompleks tarzda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bundan tashqari, raqamli transformatsiya sharoitida bank mahsulotlari tarkibi, xizmatlar sifati hamda mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan innovatsion bank mahsulotlarini shakllantirish masalalari qo‘shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Bank xizmatlari va bank mahsulotlarini ko‘rib chiqishdan oldin, ushbu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqni tushunish kerak. Bank xizmati tushunchasi turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ba’zilar buni ma’lum bir maqsadga erishishga qaratilgan funksiya deb bilishadi, boshqalari esa uni ma’lum bir atributlar to‘plami bilan tavsiflangan obyekt deb bilishadi. Bank xizmatlari mijozning ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zaro kelishuv asosida amalga oshiriladigan texnik jihatdan o‘zaro bog‘liq bank operatsiyalari majmui sifatida qaraladi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda “bank mahsuloti” atamasi ko‘pincha “bank xizmatlari” bilan sinonim sifatida ishlatiladi. Bank mahsuloti – bu bank xizmatlarini ko‘rsatish orqali mijozlarning ma’lum bank sohalarida ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq xizmatlar va operatsiyalar majmui. Bank mahsuloti bankning moliya bozorida sotish uchun mo‘ljallangan o‘zaro bog‘liq xizmatlar, operatsiyalar va moddiy tarkibiy qismlar to‘plami sifatida qaraladi. U bank operatsiyasidan kelib chiqadi va ushbu operatsiyalarni amalga oshirishda murakkab bank mahsulotini yaratish uchun tegishli bank xizmatlari qo‘shiladi. Bank xizmatlari va bank mahsulotlari bank va moliyaviy sohalardagi o‘zaro bog‘liq tushunchalardir, ammo ular bank o‘z mijozlariga taqdim etadigan narsalarning turli jihatlarini anglatadi.

Bank xizmati deganda bank yoki moliya instituti o‘z mijozlariga taqdim etayotgan har qanday moliyaviy mahsulot yoki yordam tushuniladi. Ushbu xizmatlar jismoniy shaxs, korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan va ular asosiy depozit hisobvaraqlaridan tortib murakkabroq moliyaviy mahsulotlargacha bo‘lgan keng ko‘lamli takliflarni o‘z ichiga oladi. Bank xizmatlarini bir necha turlarga bo‘lish mumkin, jumladan:

- depozit xizmatlari (muddatli depozitlar, jamg‘arma depozitlar va boshqalar);
- plastik kartalar bilan xizmatlar;
- internet banking xizmatlari;
- mobil banking xizmatlari;
- kredit xizmatlari (mikroqarz, ipoteka, avtokredit, ta’lim krediti);
- kredit kartalar bilan xizmatlar;
- konsalting xizmatlari;
- brokerlik xizmatlari;
- moliyaviy rejalashtirish;
- kassa xizmatlari;
- bank depozitlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan xizmatlar;
- valyuta xizmatlari;

– boshqa chakana xizmatlar.[1]

Taqdim etilayotgan xizmatlarning o‘ziga xos diapazoni bir bankdan boshqasiga farq qilishi mumkin, bu muassasa hajmi, yo‘nalishi va mijozlar bazasi ehtiyojlariga bog‘liq. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari bozoridagi bugungi kundagi holatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, chakana bank xizmatlari uchun aniq chegaralar belgilanmagan. Shu bois, ularni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar (bank yoki boshqa biron-bir tashkilot yoxud tadbirkorlik faoliyatiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan);

2. Yuridik shaxslarga, aynan shu tashkilotlarda faoliyat yuritadigan jismoniy shasxlarning iste’molga oid ehtiyojlarini qondirish uchun ko‘rsatiladigan korporativ-chakana xizmatlar (masalan, tashkilot xodimlariga oylik maoshlarini, jismoniy shaxslarning bank to‘lov kartalaridagi shaxsiy hisob raqamlariga o‘tkazish orqali to‘lash).

1-jadval


Bank xizmati va bank mahsuloti o‘rtasidagi asosiy farqlar[2]

№	Bank xizmati	Bank mahsuloti
1.	Ta’rif: Bank xizmatlari bank o‘z mijozlariga ko‘rsatadigan kengroq yordam, qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro aloqalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu xizmatlar ko‘pincha nomoddiy bo‘lib, bank ishi bilan bog‘liq jarayonlar va mijozlar tajribasini o‘z ishiga oladi.	Ta’rif: Bank mahsulotlari deganda banklar o‘z mijozlariga taqdim etadigan moliyaviy vositalar yoki takliflar tushuniladi. Ushbu mahsulotlar mijozlar o‘zlarining turli moliyaviy ehtiyojlari va maqsadlarini qondirish uchun foydalanishlari mumkin bo‘lgan moddiy moliyaviy vositalardir.
2.	Bank xizmatlari-bu bank bilan umumiy tajriba. Ular mijozlarga xizmat ko‘rsatish, onlayn bank platformalari, moliyaviy maslahatlar, hisoblarni boshqarish bilan shug‘ullanadi va bank mahsulotlaridan samarali foydalanishga yordam beradi.	Bank mahsulotlari o‘ziga xos yaxlit moliyaviy aktivlar yoki xizmatlar bo‘lib, ko‘pincha o‘ziga xos xususiyatlar va shartlarga ega. Ular odatda yaxshi aniqlangan va standartlashtirilgan bo‘lib, mijozlar tushunishi va baholashini osonlashtiradi.
3.	Bank xizmatlari mijozlarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy maslahat xizmatlari, onlayn va mobil bank platformalari, hisob-kitoblarni to‘lash xizmatlari, moliyaviy rejalashtirish, kredit bo‘yicha maslahatlar va investitsiya bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ishiga oladi	Umumiy bank mahsulotlariga investitsiya fondlari yoki vositachilik xizmatlari, masalan, jamg‘arma hisobvaraqlari, chek hisobvaraqlari, depozit sertifikatlari (SD), shaxsiy kreditlar, ipoteka kreditlari, kredit kartalar, avtokreditlar va investitsiya imkoniyatlari kiradi
4.	Maqsad: Bank xizmatlari mijozlarning umumiy tajribasini yaxshilash va mijozlarning moliyaviy maqsadlariga erishish uchun bank mahsulotlaridan samarali foydalanishlarini ta’minlashga qaratilgan. Xizmatlar ko‘pincha bank xizmatlarini qulay, xavfsiz va foydalanuvchilarga qulay qilish uchun mo‘ljallangan.	Maqsad: bank mahsulotlari mijozlarga o‘z pullarini boshqarish, ko‘paytirish yoki ularga kirish, moliyaviy maqsadlarga erishish va muayyan moliyaviy ehtiyojlarni (masalan, tejash, qarz olish, investitsiyalar) qondirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Мамалимова_Этап_3._П рохождение_нормоконт роля.docx
[2] Muallif tomonidan tuzildi

№	Bank xizmati	Bank mahsuloti
5.	Mijozlarning o‘zaro ta’siri: Bank xizmatlari mijozlar va bank o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni o‘z ichiga oladi, ular mijozlarga bank mahsulotlaridan foydalanishda va ularning moliyaviy ishlarini boshqarishda yordam berish va qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan.	Mijozlarning o‘zaro ta’siri: Banklar mijozlarni jalb qilish uchun o‘z mahsulotlarini reklama qiladi va targ‘ib qiladi. Xaridorlar ushbu mahsulotlar orasidan o‘zlarining afzalliklari va talablariga qarab tanlashlari mumkin.

Chakana kreditlash butun dunyo bo‘ylab moliyaviy tizimlarida asosiy ahamiyat kasb etuvchi bo‘lib, iqtisodiy o‘sish va shaxsiy rivojlanish uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. An’anaviy bank kreditlaridan peer-to-peer kreditlash platformalariga qadar, chakana kreditlash landshafti yillar davomida rivojlandi. Chakana kreditlashda yakka tartibdagi uy sotib olish uchun, biznesni boshlash uchun, ta’lim olish uchun odamlarga o‘z maqsadlariga erishish uchun turli yo‘nalishlarda kreditlar ajratiladi.



1- rasm. Jismoniy shaxslarning chakana bank xizmatlari[3]

Moliyaviy institutlar, jumladan, banklar va mikrokredit tashkilotlari qarz oluvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil kredit mahsulotlarini taklif qilishadi. Jismoniy shaxslarga kredit berish an’anaviy bank tizimlaridan tashqarida qolishi mumkin bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun kredit olish imkoniyatini ta’minlash orqali moliyaviy inklyuzivlikka hissa qo‘shadi. Bu odamlarga tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish va shaxsiy o‘sishga sarmoya kiritish imkonini berish orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi.

Bu orqali nafaqat iqtisodiy faollik oshadi, balki aholining hayot darajasi yaxshilanadi va kambag‘allik darajasi kamayadi. Moliyaviy inklyuzivlikni ta’minlash orqali jamiyatda teng imkoniyatlar yaratiladi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, kichik va o‘rta bizneslar uchun moliyaviy resurslar kengayib, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga zamin hozirlanadi. Natijada, mamlakat iqtisodiyoti diversifikatsiyalanib, uzoq muddatli barqaror o‘sishga erishish imkoniyati ortadi. Shuningdek, moliyaviy

[3] Muallif tomonidan tuzildi

institutlarning innovatsion xizmatlari va raqamli texnologiyalarni joriy etishi kredit olish jarayonini soddalashtiradi va tezlashtiradi.

O‘zbekistonning moliyaviy sektori mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, tijorat banklari chakana bank xizmatlari orqali aholining moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonda bank tizimini modernizatsiya qilish, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va moliyaviy inkluziyani oshirish bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. Xususan, mobil banking, internet-banking va elektron to‘lovtizimlari aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llanilmoqda.

ATB “Agrobank” O‘zbekiston ning yetakchi tijorat banklaridan biri bo‘lib, u o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirib bormoqda. Internet-banking va mobil banking xizmatlarining foydalanuvchilari soni 2025-yil davomida sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, Nukus, Xorazm, Shayxantoxur va Navoiy filiallari SMS-banking xizmatlariga bo‘lgan talabning yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda.

Jismoniy shaxslarga chakana bank xizmatlarini ko‘rsatishda depozit, kredit, to‘lov va hisob-kitob operatsiyalari, masofaviy bank xizmatlari va boshqa moliyaviy mahsulotlar keng qo‘llaniladi. Bank xizmatlarining innovatsion rivojlanishi natijasida mijozlar moliyaviy operatsiyalarini yanada qulay va tezkor tarzda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Biroq, chakana bank xizmatlarini rivojlantirish mijozlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali infratuzilmani yaxshilash va xavfsizlikni yaxshilash kabi muammolar bilan birga keladi. Bundan tashqari, xalqaro pul o‘tkazmalari va xalqaro operatsiyalarga nisbatan tartibga solish choralarini kuchaytirish zarur.

Kelajakda bank tizimiga texnologik innovatsiyalar, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa raqamli echimlarni joriy etish moliya sektori samaradorligini oshirishga va bank tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bank xizmati va bank mahsuloti o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, ular iqtisodiy mazmuni va funksional vazifalari jihatidan farqlanadi. Bank mahsuloti mijozlarga taklif etiladigan aniq moliyaviy vositani ifodalasa, bank xizmati ushbu mahsulotni yaratish va mijozlarga yetkazib berish jarayonini tavsiflaydi. Chakana bank xizmatlarining rivojlanishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot davomida O‘zbekistonda raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanayotgani, biroq moliyaviy savodxonlikni oshirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish va axborot xavfsizligini kuchaytirish kabi masalalar dolzarbligicha qolayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Tijorat banklarida mijozlarning ehtiyojlariga mos innovatsion va moslashtirilgan chakana bank mahsulotlarini ishlab chiqishni kengaytirish.
2. Mobil banking, internet banking va sun’iy intellektga asoslangan raqamli bank xizmatlarini yanada rivojlantirish hamda ularning ommabopligini oshirish.
3. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlari va axborot kompaniyalarini keng yo‘lga qo‘yish.
4. Chakana kreditlash jarayonlarida zamonaviy risklarni baholash tizimlari va raqamli skoring texnologiyalarini joriy etish orqali kredit ajratish samaradorligini oshirish.

5. Bank xizmatlarida axborot xavfsizligini kuchaytirish, kiberxavfsizlik standartlarini takomillashtirish hamda mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini ishonchli himoya qilish choralarini kengaytirish.

6. Chekka hududlarda moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlash maqsadida masofaviy bank xizmatlari va raqamli to‘lov infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rose, P. S., & Hudgins, S. C. (2021). Bank Management & Financial Services (10th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Mishkin, F. S., & Eakins, S. G. (2024). Financial Markets and Institutions (10th ed.). Pearson.
3. Koch, T. W., & MacDonald, S. S. (2015). Bank Management (8th ed.). Cengage Learning.
4. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2021). Financial Institutions Management: A Risk Management Approach (10th ed.). McGraw-Hill Education.
5. Sinkey, J. F. (2002). Commercial Bank Financial Management in the Financial Services Industry (6th ed.). Prentice Hall.
6. Freixas, X., & Rochet, J.-C. (2008). Microeconomics of Banking (2nd ed.). MIT Press.
7. Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing Management (16th ed.). Pearson.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va statistik ma’lumotlar. Toshkent.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PQ–4699-son "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qaror. Toshkent.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). PF–60-son "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmon. Toshkent.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). Bank xizmatlari ommabopligini oshirish strategiyasi (2020–2025). Toshkent.
12. O‘zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ–582, 5 noyabr 2019 yil.
13. O‘zbekiston Respublikasining "O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘RQ–582, yangi tahrir.
14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot (2023–2024). Toshkent.
15. Мамалимова Э. Банк хизматлари бозорини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари. (qo‘lyozma/dissertatsiya materiallari).